

O'zbekiston
Respublikasi
Milliy Matbuot Markazi

Ona yurti - oltin beshig

TONG Yulduzi

№41 (66374)
2002 yil
7 oktabr,
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan.

KOLLEJIM - FAXRIM MENING

Insonning hayotda o'zligini va dunyoni tanishida, bilim olib, odob-ahloq, kasb-hunar o'rganishida ustozlarning hissasi beqiyos bo'ladi. Ilk bor maktab ostonasiga qadam qo'yganimizda ham, mustaqil hayotga uchirma bo'layotganimizda ham ularga suyanamiz.

Men bu yil O'zbekiston Sog'liqni saqlash Boshqarmasiga qarashli O'quv Davolash Kompleksining tibbiyot kolleji talabasi bo'ldim. Bizlarga 91 nafar bilimdon, mohir murabbiylar saboq berishadi. Shulardan 24 nafari «Oliy toifali» o'qituvchilardir. «Xalq maorifi a'lochisi» unvoniga sazovor

bo'lgan O'lmas aka Mannonov, Saodat opa Abdulqosimova, To'xtaxon opa Otamurodovalar, fan nomzodi Mahmuda opa G'ulomovalar uch xil mutaxassislik - akusherlik, tish shifokori va hamshiralik bo'yicha ta'lim bermoqdalar. Shu oz fursat ichida anchagina narsalarni o'rganib oldim. Ustozlarimiz bizga bilim beribgina qolmay, ongimizda ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni shakllantirishga ham alohida ahamiyat berishadi.

Kollejimizda biz uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan. Tez-tez o'tkazib turiladigan ko'rik-tanlovlar, viktorina va musobaqalarda bilimimiz, ong va shuurimiz boyib borsa, turli

sport bellashuvlarida salomatligimizni tiklaymiz. Bu dargohdagi barcha ibratli ishlarga bosh-qosh bo'layotgan kollejimiz rahbari Ma'suda opa Fozilbekovaning talabchanliklari bois, biz boshqa kollej talabalaridan ham bilimimiz, ham yurish-turishimiz, ham odobu ahloqimiz bilan ajralib turamiz.

Men ham o'zim tanlagan mutaxassislik bo'yicha puxta bilim olib, ustozlarim ishonchini oqlashga astoydil harakat qilyapman.

Feruza OBIDOVA,
Toshkent shahridagi UDK
Tibbiyot kollejining
1-kurs talabasi.

KUZ KUNLARI

Kuz kunlari daraxtlar,
Barglarini to'kadi.
Nazarimda ularning,
Bundan ko'ngli cho'kadi.

Xafa bo'lma daraxtlar,
Bu tabiat qonuni.
Yana bahor keladi,
Aniq bilaman buni.


Yashillikka burkanib,
Yana kulib boqasiz.
Sochingizga oq guldand,
Soch popuklar taqasiz.

Adolat MADAMINOVA,
Xorazm viloyati,
Yangibozor tumanidagi
15 - maktabning
8- «V» sinf o'quvchisi.



Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 118- maktabning 5- «A» sinf o'quvchisi Dilrabo DO'STQOBILOVA chizgan rasmini «Kuz kunlari» deb nomlabdi. Gazetamiz sahifalarini unung rasmlari bilan bezatdik.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 10 yilligi oldidan



uchinchi o'rin 5 - maktabning «Qalqon» guruhi a'zolariga nasib etdi.

Rag'batlantiruvchi o'rinlar 16-, 22 - maktab o'quvchilari jamoasiga topshirildi.

-Yaqinda ko'rik-tanlovning ikkinchi viloyat bosqichi bo'lib o'tdi, -deydi Respublika «Tasviriy oyina» ijodiy uyushmasining,

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

«Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari». 18- modda

Asilbek Norbekovga, ikkinchi o'rin- Sh. Rashidov tumanidagi 18- maktabning 7- «A» sinf o'quvchisi Dilfuza Berdibekovaga va

Xudoynazarovaga berildi.

Uchinchi, tasviriy va san'at yo'nalishi bo'yicha birinchi o'rin Sirdaryo tumanidagi 1- maktabning 6- sinf o'quvchisi

Boburjon Saidbekovga, ikkinchi o'rin Yangiyer shahridagi, 1- maktabning 9- «A» sinf o'quvchisi Shahnoza Egamberdiyevaga va uchinchi o'rin esa Sh.Rashidov tumanidagi 21- maktabning 9- «A» sinf o'quvchisi Shahnoza Norboyevaga nasib etdi.

Viloyat bosqichida o'tkazilgan ushbu ko'rik-tanlovdan shuni angladikki, sirdaryolik o'quvchilar Konstitutsiyamizning asl mohiyatini o'rganishga astoydil kirishganlar. Unga hurmat bilan qaraydilar.

Kelgusida ularni kutayotgan Respublika bosqichida ham faol ishtirok etishlarini istab qolamiz.

F.ODILOVA.

Sirdaryo viloyati o'quvchilari ham ushbu tanlovda

faol ishtirok etyaptilar. Ko'rik-tanlovning birinchi bosqichi besh yo'nalish bo'yicha maktablararo o'tkazildi.

5-6-7- sinf o'quvchilari o'rtasida bayon yozish bo'yicha o'tkazilgan tanlovda 2- maktab o'quvchilari o'z bilimdonliklarini namoyon etishdi.

8-11-sinf o'quvchilari o'rtasidagi insholar tanlovida 5- maktab o'quvchilari, rasm plakatlar bo'yicha 8- maktab o'quvchilari, fotosuratlar bo'yicha esa 22- maktab o'quvchilari g'oliblikni qo'lga kiritishdi.

Ko'rik-tanlovning umumiy natijalariga ko'ra birinchi o'rinni hay'at a'zolari bir ovozdan 8- maktabning «Adolat» guruhiga topshirishdi.

Ikkinchi o'rin esa 2 - maktabning «Qomus» guruhiga va nihoyat

BAXTIMIZ POYDEVORI

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Adliya vazirligi, Respublika «Tasviriy oyina» ijodiy uyushmasi va Respublika Badiiy Akademiyasi hamkorligida O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning o'n yilligiga bag'ishlab «Konstitutsiyamiz- baxtimiz poydevori» shiori ostida ko'rik-tanlov e'lon qilindi. Undan maqsad, yoshlarning huquqiy bilimlarini mustahkamlash, ularga Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatini puxta o'rgatishdir. Ushbu ko'rik-tanlov joylarda navbatma-navbat o'tkazilyapti.

ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha bo'lim mudiri Muhabbat Sherbo'tayeva. - Unda o'quvchilar uch yo'nalish-bayonlar, insholar va tasviriy san'at yo'nalishlari bo'yicha o'z bilimlarini yana bir bor sinovdan o'tkazishdi.

G'oliblar Respublika miqyosida bo'ladigan ko'rik-tanlovda ishtirok etish huquqiga ega bo'ldilar. Bayon yo'nalishi bo'yicha birinchi o'rin sohibi- Xovos tumanidagi 9- maktabning 9- «A» sinf o'quvchisi

uchinchi o'rin esa Xovos tumanidagi 9- maktabning 5-sinf o'quvchisi Otabek G'ofurovga nasib etdi.

Ikkinchi yo'nalish-insholar bo'yicha birinchi o'rin Boyovut tumanidagi 13 - maktabning 9- «A» sinf o'quvchisi Nargiza Dadaboyevaga, ikkinchi o'rin- Sh.Rashidov tumanidagi 18- maktabning 10- «A» sinf o'quvchisi Gulnora Sulaymonovaga va uchinchi o'rin Shirin shahridagi 1- maktabning 8- sinf o'quvchisi Umida

BOSHIM OSMONGA YETDI

Biz o'qituvchilar ham har hafta bolajonlar kabi qadrdonimiz «Tong yulduzi»ning kelishini intizorlik bilan kutamiz.

Axir Respublikamiz miqyosidagi bolalar hayotiga oid yangilik va xushxabarlarni, maktablarida amalga oshirilayotgan ibratli ishlarni, eng iqtidorli bolalar haqidagi hikoyalarni, sport bellashuvlari-yu san'at bayramlarini, sevimli



san'atkorlarimiz, shoir va yozuvchilarimiz, mashhur

insonlarning bolaligi haqidagi

maroqli hikoyalarni aynan ana shu gazetada

o'qiydigan-da. Ayniqsa, iqtidorli bolalar ijodi bilan tanishib, qalbdan g'ururlanib ketasan kishi...

«Tong yulduzi»ning navbatdagi sonini varoqlab o'tirib, ko'zim «Bizning Mohira opa» deb nomlangan maqolaga tushib qoldi. Rasmga qaragam, mening o'quvchilarim bilan tushgan suratim. Juda hayajonlanib ketdim. O'quvchilarim men haqimda

juda iliq so'zlar yozishibdi. Ayniqsa, menga bildirilgan minnatdorchilik so'zlarini o'qib, ko'zlarimda sevinch yoshlari qalqidi. Ha, o'quvchilarim juda inoq, tartibli bolalar. Doim yaxshi o'qishga harakat qilishadi. Darsdan so'ng to'garaklarga qatnab, hunar o'rganishadi. Men ularning kelajagiga ishonaman...

Kuni kecha ota-onalar majlisi o'tkazdim. Ota-onalarimiz obuna qachon bo'ladi, bolalarimiz albatta «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishadi.

Chunki bu gazetani o'zimiz ham qiziqib o'qiydigan. Sahifalarini varoqlab, bolaligimiz,

do'stlarimiz yodimizga tushib ketadi, deyishdi. Ularning gaplarini tinglab, boshim osmonga yetdi. Men ham fursatdan foydalanib, o'quvchilarimga yangi o'quv yilida yangi parvozlar tilayman. Biz ustozlar ishonchini oqlashlariga ishonaman.

Mohira BOLTAYEVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon shahridagi A.Ikromov nomli 5 - maktab o'qituvchisi.

E'ZUZ

Prezident asarlarini o'rganamiz

MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

2. Tarixiy va falsafiy asoslari

Milliy istiqlol mafkurasining ma'no-mazmunini belgilaydigan asoslardan biri — bu xalqimizning qadimiy va boy tarixidir. Chunki tarix — buyuk murabbiy. U insonga ibratli xulosalar beribgina qolmasdan, ba'zan achchiq saboqlarni ham tan olishga undaydi.

Ona zaminimizda bundan necha asrlar avval yaratilib, to hanuz yurtimizga ko'rk bag'ishlab turgan qadimiy obidalar, osori atiqalar xalqimizning yuksak salohiyati, kuch-qudrati, bunyodkorlik an'analari haqida, Vatanimizning shonli tarixi to'g'risida tasavvur va tushunchalar beradi, shu muqaddas diyorda yashaydigan har bir inson qalbida g'urur-iftixor tuyg'ularini uyg'otadi.

Xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi, tafakkur va dunyoqarashi, hayotga, voqelikka munosabatining ifodasi bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalari, «Alpomish», «Shashmaqom» kabi san'at durdonalari, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi milliy qahramonlarimizning ibratli hayoti ham milliy mafkuramiz oziqlanadigan manbalardir.

Mafkuramizning falsafiy asosini, avvalo, milliy-ijtimoiy tafakkurning mumtoz namunalari bo'lgan dunyoviy bilimlar, jahon falsafasi durdonalari belgilaydi. Olam va odamning yaralishi va takomillashib borishi haqidagi diniy va ilmiy qarashlar, poklik, halollik, mardlik, komillik g'oyalari ham bugungi mafkuramiz shakllanishiga ta'sir o'tkazadi.

Buyuk donishmand ajdodlarimizning ozodlik to'g'risidagi g'oyalari, Xorazmiyning dunyoviy kashfiyotlari va Beruniyning ijtimoiy-axloqiy qarashlari, Forobiyning adolatli jamiyat va Ibn Sinoning dualizm ta'limoti, Alisher Navoiyning komil inson haqidagi falsafiy mushohadalari, asrimiz boshidagi ma'rifatparvar ziyolilar faoliyati ham milliy g'oya va istiqlol mafkurasining teran tomirlaridir.

(Davomi bor.)

TOSHKENT - RASSOMLAR NIGOHIDA

Poytaxtimizning markazida joylashgan O'zbekiston Davlat San'at muzeyida yangi ko'rgazma ish boshladi. «Toshkent - rassomlar nigohida» deb nomlangan ushbu ko'rgazmada rassomlarning XVIII-XIX asrlardagi poytaxtimiz manzarasi tasvirlangan asarlari namoyish etildi. Iste'dodli musavvir S.P.Yudin boshqa muhitda yashab turib, O'zbekistonning ajoyib ranglar olami ekanini his qilgan holda uni tasvirlaydi. Uning asarlarida tabiat qo'ynidagi go'zal manzaralar, tarixiy obidalar, madrasa va mahallalar o'z aksini topgan.

Zommer R.K asarlaridan esa sharq me'moriy obidalari, muhtasham va

ulkan binolar o'rin olgan. Buni uning «Toshkentdagi masjid», «Toshkentdagi qabriston» asarlarida ham ko'rish mumkin.

Ko'rgazmadagi ajoyib asarlar muallifi I.S.Kazakov asarlarida serquyosh Vatanimizning gullagan bog'lari, tiniq va shaffof suvlari tasvirlangan.

Bu ko'rgazma buvi-buvajonlarimizning yoshlik davrlarini yodga tushirib, qalblarida yengil hayajon uyg'otganini ko'zlaridan yosh qalqigan nuroniylar nigohidan angladim.

Nargiza RIXSIBOYEVA,
Poytaxtimizdagi 3 - maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi.



OG'ZLAR TEGIR



MANGU MASH'ALA

Diyorimizda 1 oktabr - o'qituvchilar va o'quvchilar uchun ham odatiy, ham milliy bayram tusiga aylandi. Chunki bu kun qalbi daryo ustozlar va ana shu daryo suvidan bahra oluvchi o'quvchilar bir-birlariga yanada yaqinlashadilar. Shirin so'zlar aytadilar, tilaklar bildiradilar.

Men ham bugun Akademik litseyning bir o'quvchisi sifatida Andijondagi ustozlarimni birma-bir xayolimdan o'tkazdim.

Mehribon ustozlarim! Sinf rahbarim Baxtixon opa, adabiyot o'qituvchim Nargiza opa! Sizlar bergan bilim va mehr hamisha yodimda. Bergan nasihatlariniz, maslahatlariniz hayot yo'llarimda mangu mash'ala bo'lib qoladi.

Barchangizga o'ta mas'uliyatli vazifani ado etishingizda doimo kuch-quvvat hamroh bo'lishini istayman. Yana bir bor bayramingiz muborak bo'lsin!

*Nizomiddin MO'MINOV,
Andijon viloyati,
Qo'rg'ontepa tumanidagi
21- maktabning
sobiq o'quvchisi.*

Ozod, obod vatanimizga bayramlar yarashadi. Ayniqsa, Mustaqillik shodiyonasining har yili ajoyib tarzda nishonlanishi juda ham quvonarli. Bu yil ham yurtimizning gapirdilar. Shodiyona nihoyasida litseyimiz direktori S.Sultonov so'zga chiqib, barchamizni qutlug' ayyom bilan

YASHASIN HURRIYAT

11 yillik to'yi yanada serfayz, yanada chiroyliroq o'tkazildi. Bizning litseyimizda ham bu tantana katta hayajon bilan nishonlandi. Chunki, litseyimiz ayni Mustaqillik kuni ochilgan. Ilm maskanimiz mustaqil, ozod yurtimiz bilan tengma-teng qadam tashlayapti.

Qo'shaloq bayramga ko'plab mehmonlar, nuroniy qariyalar tashrif buyurdilar.

Tarix o'qituvchilarimiz Farhod Sultonov va Mavjuda opalar moziy vatanparvarlarini yod etib, bugungi kunda erishgan yutuqlarimiz haqida

muborakbod etdilar. Bu yil litseyimizga qabul qilingan yangi sinf o'quvchilarini tabriklab, ularga, qolaversa, bu gulshanda unib-o'sayotgan biz gul-g'unchalarga porloq kelajak tiladilar. Azizlar, tengdoshlarim, men ham barchangizni qutlab, sizlarga Baxt qasrini, Omad taxtini, Zafar tojini tilab qolaman. Yurtimiz esa HURRIYAT quchog'ida abadiy yashasin deyman.

*Gulruhbegim SAYFIDDIN qizi,
Alisher Navoiy nomidagi
Respublika Nafis san'at
litseyi talabasi.*

TAMAKINING ZARARINI BILASIZMI?

Ko'cha-ko'ylarda sigareta chekayotgan kishilarni ko'plab uchratish mumkin. Lekin biz ularga umuman e'tibor bermaymiz, chunki o'zimiz ham, ko'zimiz ham bu holga o'rganib ketgan. Afsuski, chekishni ko'pchilik bolalar ham odat qilib olishgan. Rivojlanayotgan organizm uchun chekish koni zarar ekanligini nahotki bilishmasa?! Men aniq manbalardan olingan quyidagi ma'lumotlarni keltirmoqchiman. Shoyad, pana-pastqamlarda kattalardan yashirib, tamaki chekadigan tengdoshlarim o'zlariga tegishli xulosa chiqarib olsalar.

Ilk bor tamaki chekish odati Kristofor Kolumb Amerika qit'asini ochgandan keyin Ovro'paga tarqala boshlaydi. Avvaliga asta-sekin, keyinchalik esa shiddat bilan yoyiladi. Uning zararliligi XVI asrlardayoq kishilarga ma'lum bo'lsa-da, kashandalar soni ortib boraverdi.

Tamaking tarkibida nikotin bo'lib, u zahardir. Agar bir-ikki dona sigareta tarkibidagi nikotinni olib, otning tanasiga ukol qilinsa, ot o'ladi. Uning bir necha tomchisi (100-200 mg.) inson organizmiga yuborilsa, bu hol uni o'limga olib borishi mumkin. Masalan, tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, o'pka sili bilan og'riganlarning 70-80 foizi chekuvchilardir. Chekishning ta'sirida odamning aqliy qobiliyati ham pasayadi. Eslash qobiliyati 4,2 foizga, sonlarni qo'shish qobiliyati esa 5,55 foizga kamayadi. Agar chekmaydigan odamning yuragi minutiga 70 ta ura, chekuvchilarda yurak urishi minutiga 80-90 ta bo'lishi aniqlangan.

*Feruza AHMEDOVA,
Toshkent viloyati,
Toshkent tumanidagi
A.To'laganov nomli
7 - maktabning
10- «A» sinf o'quvchisi.*

Buvijonim bilan dodajonimni o'qituvchilar bayrami bilan tabriklagani borganimda jajjigina jiyanim Saydullaxonning dars qilib o'tirganini ko'rib ajablandim. Chunki jiyanim hech tinib-tinchimas, sho'x, o'yinqaroq bolakay edi. Uni kuzatib turganimni sezdimi, bir talay daftarlarni ko'tarib, yonimga

EHTIROM SIZGA



yugurib keldi. Daftarlarni varoqlar ekanman, o'zimning ilk bor maktab ostonasiga qadam qo'ygan onlarim, birinchi ustozim, sinfdoshlarim

yodimga tushib ketdi. Birinchi «besh»imni olganimda, dunyoda mendan baxtliroq inson bo'lmagandi. Menga saboq bergan, qalb qo'rini

bag'ishlagan, goho tanbeh bersa-da, kelajagimizni o'ylagan birinchi ustozimiz Ma'suda opamdirlar. Bolalik shunday beg'ubor davr ekanki, inson umrining hech bir lahzasini unga tenglashtirib bo'lmas ekan. Ustozimiz esa mana shu oltin lahzalarni boyituvchi buyuk insondirlar.

Malohat

*TO'XTAYEVA,
Poytaxtimizdagi
116 -maktabning
8- «B» sinf o'quvchisi.*

QISHLOQ HAYOTI

Qishloq! Bu so'zni eshitishim bilan ko'z o'ngimda qadrdon qishlog'im, zabardast tog'lar, keng dalalar gavdalanadi. Quloqlarimga esa ukajonlarimning shirin qo'shiqlari, qiyqiriqlari, to'y sadolari, yaylovdan qaytayotgan qo'y-qo'zilarining ma'rashlari eshitaladi. Ona qishlog'im. Mening kaftdek ko'ringan qishlog'im shunchalar go'zal. Uni yuqoridan tomosha qilsangiz go'zalligiga, maftunkorligiga amin bo'lasiz. Dalalarda qovun-tarvuzlar pishganidan «tars» yorilib ketgudek. Oppoq tabassumlari bilan ko'nglimni yoritgan cheksiz paxtazorlarning ko'rkiga-ko'rk beradi. Mening jonajon qishlog'im bir-biriga tutash bo'lib ketgan navqiron qoratog'ning bag'rida joylashgan go'zal «Naxripay»ning

suluv kelinchagi bo'lmish «Oqtosh» mening ilk vatanim hisoblanadi. Qishlog'imni hech ko'rganmisiz? Hozir men yuqoridan turib o'z qishlog'imni sizlarga tasvirlayman.

Kaftdek ko'ringan qishlog'imda qing'ir-qiyshiq ko'chalar birdan ko'zga tashlanadi. Daraxtlar qaysi fasl kelmasin, qishlog'imga ko'rk beradi. Yaylovdan qaytayotgan qo'y-qo'zilar, sigir sog'ayotgan onam, tandirda yuzlari qizarib qip-qizil non yopayotgan yangam, hovlini supurayotgan opam. Kimlardir ro'zg'or tashvishlari bilan band. Bu manzarani ko'rib, yuragingiz qandaydir entikib, orziqib ketadi.

*Oynisa ESHMURODOVA,
Samarqand viloyati,
Oqtosh shahridagi
59 - maktab o'quvchisi.*

BIZ SEVGAN USTOZ

Men ona tili va adabiyot faniga ixtisoslashtirilgan iqtidorli bolalar sinfida o'qiyman. Sinfimiz o'quvchilari adabiyot, she'riyatning «ashaddiy» ishqibozlari.

Ustozimiz Maxfirat opa Egamova bizning barcha savollarimizga aniq va puxta qilib javob beradilar. Darsdan so'ng adabiyotga qiziquvchi o'quvchilar bilan alohida shug'ullanadilar.

Biz o'quvchilarga katta mehr berganlar. O'z navbatida biz ham shunday mehribon, shirinso'z va talabchan ustozimiz bilan faxrlanamiz. Baxtimizga doimo sog', omon bo'ling, aziz ustoz!

*Matluba O'SAROVA,
Jizzax viloyati,
G'allaorol tumanidagi
22- maktabning
8- «V» sinf o'quvchisi.*




Men bo'sh vaqtlarimda kitob o'qishni, rasm chizishni yaxshi ko'raman. Rasmlarimda Vatanimni, shahrimni va jonajon internatimni eng chiroyli ranglarda tasvirlayman. Rasm chizsam, ko'nglim taskin topgandek bo'ladi va dardlarim esimdan chiqadi. Juda yoshligimdan oq sil kasalligi bilan og'rib kelaman. Bu ham yetmagandek, astma xastaligini ham orttirganman. Kasallarim xuruj qilgan chog' boshimda qattiq og'riq paydo bo'ladi. Ko'z o'ngim qorong'ulashib ketadi. Ba'zida xushimdan ketib, ikki-uch kungacha to'shakka mixlanib yotaman. Shunday damlarda boshimda ham onam, ham dadam bo'lib o'tirgan aziz va mehribon inson Ibodulla aka Rajabovni ko'rsam, dilim taskin topadi. U kishi yonimda bo'lsalar, men kasallikdan sira ham qo'rqmayman. Chunki u kishiga tajribasiga, mahoratiga, meni albatta tuzatishlariga ishonaman...

Bizning internatimizda sil kasali bilan og'rikan bolalar ham o'qib, ham davolanishadi. Bu kasal yuqumli sanaladi. Shunday bo'lsa-da, bizni davolaydigan shifokorlar qo'rqmasdan, sidqidildan mehnat qilishadi. Ibodulla aka Rajabov o'zining 35 yillik umrini shu dargohga baxshida etgan ekanlar. Mening murg'akkina ko'nglimda mehr uyg'otgan bu g'amxo'r insonga, shuningdek, Gulchehra opa Mardonova, Muhammad aka Sharipov, Ra'no opa Mo'minova, Otabek aka Hojimurodov singari aziz shifokorlarimizga o'z minnatdorчилигинi bildirmoqchiman. Mehribon Prezident bobomiz ham bizga alohida g'amxo'rlik ko'rsatyaptilar. Issiq va shinam yotoqxonalar, kompyuterlar bilan jihozlangan sinf xonalari, besh mahal issiq ovqat,

kiyim-kechak, yozgi oromgoh, qadimiy shaharlarga sayohatlar, eh-he, sanayversak biz uchun yaratilgan shart-sharoitlarning adog'iga yetib bo'lmaydi. Internatimiz direktori Fazliddin aka

RASM



Sattorov ham bizga otalardek g'amxo'r, jonkuyar va fidoiy inson. U kishi boshchiligida juda ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilyapti. Shahrimizdagi bir qancha himmatli tashkilotlar ham bizdan yordamlarini ayamayaptilar. O'rmon xo'jaligi bizlar uchun yuz ming so'mlik mevali va manzarali ko'chat ekib bergan bo'lsa, dehqon bozori yetmish ming so'mlik yordam puli o'tkazdi. «Mahalla» jamg'armasi sportchi bolalarimizning o'n besh nafariga sport kiyimi sovg'a qilgan bo'lsa, «Kamolot» jamg'armasi o'n nafar o'quvchining omonat daftarchasiga o'n ming so'mdan pul o'tkazdi. «Safoyev» xususiy notarial idorasi ellik ming so'm, «Gavhar» kichik korxonasi yigirma ming so'm pul ko'chirib, salomatligimizni tiklashga o'z hissalarini qo'shib kelyaptilar.

Internatimizda sport ishlari, turli to'garaklar faoliyati juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Men dugonalarim bilan Matluba opa Hamyatova rahbarlik qilayotgan «Nafosat», Bashorat opa Hodiyeva rahbarligidagi «Russkaya

SAVOB ISHNI HAR KIM, HAR KUNI QILISHI KERAK.

slova», Dilora opa Habibullina rahbarligidagi «Yosh fizik» to'garigiga qatnashamiz. «Sirli qalam», tikish-bichish, tarjimon, tarona, yosh o'lkashunos to'garaklari ham bolajonlar bilan doimo gavjum bo'ladi. Shu to'garaklarda qatnashib, shahar, viloyat, hatto Respublika miqyosidagi yaxshi o'rinlarga sazovor bo'lib kelyapmiz. Yaqinda yettinchi sinfda o'qiydigan Umidjon Respublika kino anjumanida qatnashib, «Sehri yog'du» tanlovining granprisini qo'lga kiritib qaytganida, bizning quvonganimizni ko'rsangiz edi. Biz yaxshi o'qish bilan

birgalikda maroqli dam olishni ham yaxshi bilamiz. Otabek Madrahimov va Ilhomjon Sharipovlar boshchiligidagi «Milfir» estrada-sirk guruhi ishtirokidagi konsert dasturini miriqib tomosha qildik. «Qariyalarni qadrlash yili» munosabati bilan katta tantana o'tkazdik. Internatimizda ishlagan faxriy o'qituvchilarimiz mehmon bo'lib kelishdi. Biz ularga atab qo'shiq va raqslar ijro etdik. Umrini, bilimni biz bolajonlarga bag'ishlagan, oramizdan bevaqt ketgan aziz ustozlarimizni xotirladik.

Maktubimda tilga olgan va olmagan barcha aziz insonlar, sizga internatda yashab, davolanayotgan bolajonlar nomidan ta'zim qilaman. Tanamda jonim boricha ota-onam uchun, xalqim uchun, Prezident bobom uchun yaxshiliklar qilib yashashga intilaman.

Farog'at JABBOROVA,
Buxoro viloyati,
G'ijduvon shahridagi
2 - davolash
maktab-internatining
6- «A» sinf o'quvchisi.

Bolalikka sodiq insonlar



Yaqinda qardosh Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod viloyati, Ola-buqa tumaniga qarashli Oqqo'rg'on qishlog'ida bo'ldim. Oqqo'rg'on o'zbek millatiga mansub bo'lgan tengdoshlarimiz yashashadi. Ularning orasida iste'dodli yoshlar juda ko'p. Ularga fidoiy va jonkuyar ustozlar boshqosh. Ulardan biri Nazokat Mullajonovadir. Shu qishloqda tug'ilib o'sgan Nazokat opa maktabni tugatgach, ilm olish ishtiyoqida poytaxtga otlandi.

Toshkentdagi Pedagogika o'rgatadigan maxsus bilim yurtida tahsil oldi. Hozirda qishloqdagi Bu xayrli ishlarni nafaqat «Madaniyat uyi» qoshida Oqqo'rg'on o'nda, balki qo'shni qishloqlarda ham qizg'in raqs to'garagi uyushtirib, tayyorlov guruhini ochdilar. Bu xayrli ishlarni nafaqat Oqqo'rg'on o'nda, balki qo'shni qishloqlarda ham qizg'in

10 - maktabning o'qituvchilari ham jalb qilindi. Ular faqat tomoshabin emas, hay'at a'zosi sifatida taklif etildilar. Ba'zan

OQQO'RG'ONDA SABOQDAN MASKAM BOR

qo'li gul qizlar uchun davom ettirmoqdalar. «Begoyim» o'quv kursini Madaniyat, Telman, Podak hamda tort va turli va Safedbulon qishloqlarida shirinliklar tayyorlashni o'quv kurslarining filiallari

ko'riklarda ham bevosita ishtirok etishadi. Nazokat opaning bu tashabbuslaridan qishloq ahli ham minnatdor bo'lib, ularga har tomonlama madadkor bo'lishyapti. Bunday tadbirlarni o'tkazishda oqqo'rg'onlik prodyuser G'ayrat Rizaliyev, sahna bezakchisi Rasuljon Xolmatov, musiqachilar guruhi rahbari Raimjon Yusupov, xonandalar Qobiljon Asronqulov,



Ikromjon Parpiyev, videotasvirchi ota-o'g'illar Ashurali va Mardonali Xudoyberdiyevlar ham yaqindan ko'mak berishadi.

Nazokat opada bo'sh vaqtning o'zi yo'q. Shunday bo'lsa-da, fursat topildi deguncha qo'llariga qalam olib, she'riy mashqlar qilib turadilar. Siz ham ularning she'rlaridan bahramand bo'ling degan niyatda bir necha she'rlarini olib keldim. O'lis qishloqlarda bolajonlarning kamol topishiga o'z hissasini qo'shayotgan Nazokat opadek insonlar ko'pligiga aminman. Siz ham ular haqida yozib yuboring.

Botir
RAMAZONOV.

ILTIJO

Qalbim vayron etsa ham alam,
Achchiq yoshlar etsa kiprigimni nam.
Menga tuhmat oshno bo'lsa ham,
Nola qilmam mehribon egam.

Iltijoda ochiq qo'llarim,
Sajda uzra egaman boshim.
Ochgin o'zing chigal yo'llarim,
Mahv etmagin sabr-bardoshim.

Bog'larimda gullagan orzu,
Kuz kezakda armon tugmasin.
Baxt va kulfat tushgan tarozu,
Pallasiga nopok tegmasin.

Farqlay bilay gunoh, ne savob,
Yashay olsak qo'rqmay o'limdan.
Ko'ngillarni aylasak tavob,
Hamdard bo'lsa menga yo'limda.

Nazokat MULLAJONOVA.

ochilgan.

Bundan tashqari, Nazokat opa boshchiligida «Madaniyat uyi»da ko'plab tadbirlar o'tkazib turiladi. «Iqbol», «Balli yigitlar!», «Jajji go'zallar», «Tinib-tinchimas shumkampirlar», «Kimning qo'li mazali?», «Kuyla, hofizim», «Qani bo'lmasa yigitlar» (qirg'iz tilida «Kani yomese jigitter») kabi ko'rik-tanlovlar shular jumlasiga kiradi. Tadbirlarga Asqarali Yusufaliyev nomli

Yaqinda G'ijduvonning eng so'lim go'shalaridan bo'lmish Abduxoliq G'ijduvoniy jamoa xo'jaligidagi Mustaqillik bog'ida tuman xotin-qizlar qo'mitasi raisi Musallam Rahmatova tashabbusi bilan tumandagi iqtidorli, ijodkor qizlar orasidan Zulfiya mukofotiga nomzodlarni tanlash maqsadida «O'zbekimning Zulfiyaxon qizlari» mavzusida mushoira kechasi bo'lib o'tdi.

Kechada tuman istiqboli yo'lida astoydil mehnat qilgan, hozirda qarilik gashtini surayotgan Obida Hamroyeva, Salomat

G'aniyeva kabi nuroniy onaxonlarimiz, ishtirokchi qizlarning ota-onalari, ustozlari ishtirok etdilar.

O'ZBEGIMNING ZULFIYAXON QIZLARI

Madaniyat bo'limi badiiy havaskorlari kuy va qo'shiqlari bilan davraga fayz kiritdilar.

Mushoira ishtirokchilari besh yo'nalish bo'yicha: adabiyot, madaniyat, san'at, ta'lim, fan sohalari bo'yicha o'z mahoratlarini namoyish etdilar. Kechani 1 - maktabning 9 - sinf o'quvchisi Nilufar Rahmonova boshlab berdi. 8 - son ixtisoslashtirilgan

iqtidorli bolalar maktab-internatining 11 - sinf o'quvchisi Gulchiroy Qahhorova, Dilnoza

Usmonova, 9 - maktabning 11 - sinf o'quvchisi Aziza Jo'rayeva, Gulchiroy Qozoqova, 25 - maktabning 9 - sinf o'quvchisi Nafisa Hamroyevalar ona Vatan, tinchlik, do'stlik haqidagi she'rlari bilan davom ettirdilar.

Gavhar Ahmedova, Gulsara Berdiyeva mumtoz qo'shiq kuyladi. Muhtarama Muhiddinova,

Nigora Rahmonovalar raqsga tushishdi. Zebiniso Ro'ziyeva fan sohasi bo'yicha, Dilnoza Narzullayeva kulolchilik san'ati bo'yicha bellashdilar.

Kechada nafaqat o'quvchilar, o'qituvchilar ham faol ishtirok etishdi. 5 - maktabning ijodkor o'qituvchisi Gulsara Shamsiyevaning «Zulfiyaxon qizlari» nomli she'ri barchaga manzur bo'ldi.

Quyida mushoira ishtirokchilari ijodidan namunalar o'qiysiz:

*Shokir
NURULLAYEV,
Buxoro viloyati,
G'ijduvon shahri
istirohat bog'i direktori.*

ZULFIYAXON QIZLARI



Qadam bosib boraman, Zulfiyaxon izidan,
Qalbimda ilhomlarim to'lqinlanib boradi.
Qolishmasman men uning biror nomzod qizidan,
Qay yo'ldan borsam meni, Alloh qo'llab turadi.

She'rlarimda Vatanim suratini solaman,
So'zlayman o'zbekimning qatag'on o'tmishini.
Bu go'zal hayotimning andozasin olaman,
Ezgulikka yo'llayman kelajak - kechmishini.

*Nilufar RAHMONOVA,
M. Ulug'bek nomli maktabning
8 - «G» sinf o'quvchisi.*

CHINOR

Shundoq anhor bo'yida,
O'sar qadimiy chinor.
Shoxlari ko'kka yetgan,
Mag'rur hamda serviqor.

Bir zumda yo'lovchining,
Charchog'i yoziladi.
Rajab ota nomiga,
Rahmatlar yog'iladi.

Yoshu qari der mudom,
Rajab ota chinori.
Yozda rosa tutadi,
Soyasining xumori.

*Nafisa
HAMROYEVA,
25 - maktabning
9 - sinf o'quvchisi.*

MEN EKKAN NIHOL

Bir yil erta bahorda,
Ekdim dalaga nihol.
Qurib qolmasin deya,
Suv quydim unga darhol.

Kelasi yil bahorda,
Niholcha qildi kurtak.
Yolg'iz zerikmasin, deb
Men o'qib berdim ertak.

Yana bir yil oralab,
Hayratda qoldim chunon.
Mittigina niholcham,
Meva tugibdi g'ujg'on.



Oppoq, mayin, ham nafis,
Niholchamning gullari.
Menga «rahmat» degandek,
Silkinadi «qo'llari».

*Aziza JO'RAYEVA,
9 - maktabning 11 - sinf o'quvchisi.*



QANDAY SOVUQ SAVOLLAR-A?

Jamshid 8 - sinfga o'tib, bo'yiga bo'y, aqliga aql qo'shildi deganda, nimagadir o'zgarib qoldi. Tanaffus paytida, ba'zan, dars vaqtida ham allaqayerlarga ketib qoladigan odat chiqardi. Kelganida esa kiyimlaridan tamaki hidi anqib turadigan bo'lib qoldi. Bu holdan o'rtoqlari xabardor. Lekin ustozlariga aytishga Jamshiddan cho'chishadi. Chunki u sinfning «paxani» da...

Yoshlikdanoq tamaki chekishni odat qilganlarning taqdiri hammaga ayon. Bunga kim aybdor? Farzandlariga ehtiyojidan ortiqcharoq pul berayotgan ota-onalarmi? Balog'at yoshiga yetmagan o'smirlarga tamaki mahsulotlarini sotayotgan

amaki va xolalarimizmi? Tamaki chekayotgan o'smirni ko'rib, ko'rmaslikka olayotgan mahalladoshlarmi? O'quvchisining «qing'ir qiliqlari»ga befarq bo'layotgan ayrim ustozlarmi?

Qanday sovuq savollar-a?.. Ularga qachon javob topar ekanmiz, siz nima deysiz, aziz tengdoshim?

Nigora ESHIMOVA,
Toshkentdagi arab tiliga
ixtisoslashgan
29 - maktabning
8 - sinf o'quvchisi.

USTOZ UYALSA MAYLIMI?

Mehnat darsi borardi. Ustozimiz Zokir aka yangi mavzuni tushuntirib bo'lib, o'rinlariga o'tirdilar. Turganlarida esa sinfda birdan k u l g u ko'tarildi. O'rindiqlariga kimdir saqich q o ' y i b qo'ygan ekan, shimlariga y o p i s h i b q o l i b d i. Ustozimiz bor gapni sinf rahbarimizga aytib berdilar. Biz majlis o'tkazib, bu ishni kim



qilganini bilmoqchi bo'ldik. Shunda bir sinfdoshim bu ishni kim qilganini bilishini, lekin ayta olmasligini, aytsa, u bola ko'pchilik oldida izza bo'lishi mumkinligini aytdi.

- U bola izza bo'lmasin u ustozingiz izza bo'lsa mayli ekanda,-dedilar sinf rahbarimiz jahl bilan.

Haligi bola shunda ham kim qilganini aytmadi. «Ustoz otangdek ulug'» deyishadi-ku! Nahotki o'sha bola ustozni ranjitish, otani behurmat qilish bilan barobar ekanligini bilmasa...

Durdona AVAZOVA,
Toshkentdagi
85 - maktabning
8- «A» sinf o'quvchisi.



Yangi o'quv yili boshlanganiga ham hash-pash deguncha bir oy bo'libdi. Shu qisqa fursat ichida sinfimizda ko'ngilsiz voqea bo'lishga ulgurdi.

Sinfimizda 34 nafar o'quvchi bo'lsa, shulardan 30 nafari o'g'il bolalar, qolgani qizlar. Darslarga o'z vaqtida kelishga harakat qilamiz. Lekin sinfga kirolmay eshik oldida 10 - 15 daqiqa turib qolamiz. Sababi, qandaydir «ko'rinmas odam» qulfning ichiga qog'oz, cho'p va latta-puttallarni

tiqib ketyapti. Qulfni ochish uchun esa anchagina vaqtimiz ketyapti. Bizning dars

vaqti o'tib ketayotganidan ortsa, bu hol dangasa, ikkichi o'quvchilarga qo'l kelyapti. Bir gal eshikni

ocholmay, qulfni sindirishga to'g'ri keldi. Bundan xabar topgan

direktorimiz: «bu ishni tashqaridan biron bir ortasi qilgan. Kim qilgan bo'lsa ham vijdoniga havola. Ertaga buzilgan qulf o'rinda yangisi bo'lsin!» deya chiqib ketdilar. Ammo hech

kimdan sado chiqmadi. Na qulfdan, na aybdordan darak bor. Qilar ishni qilib qo'yib, ustozimiz, direktorimiz oldida barchamizni hijolatga qoldirayotgan «ko'rinmas odam»ga qarata shunday demoqchi-

man: «Maktab - bizning ikkinchi uyimiz. Uni ko'z qo'ra chig'imizdek asrashimiz ham qarz, ham farzdir. Maktab uchun biron-bir yaxshilik qila olmas ekansan, hech bo'lmasa yomonlik ham qilmagin».

FERUZA.

Sahifani Nargiza AKBAR qizi tayyorladi.

Bizning mehmon

SIZNING HAJVCHI BOBONGIZ

Aziz bolajonlar! Iste'dodli ijodkor Karim Rahim bobongizni yaxshi taniysiz-a? Ularning sizlarga bag'ishlangan «Dilbar», «Qizil mashina», «Xo'rozqand», «Dengiz guli», «Asaltopar», «Anjir guli» singari hikoyalar to'plamlarini ham o'qigandirsiz? Gazetamiz sahifalarida ham adibning talaygina hikoya va hajviyalari

chop etilgan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, sakkiz nabiraning bobosi Karim Rahim sizlarga bag'ishlangan hikoyalar, hangomalar, she'rlar yozishda davom etmoqda. Quyidagi hikoya va hangomalar ham adib bobongiz qalamiga mansub.



O'RTADA TURMAYMAN

Tarbiyachi bolalarni bog'cha maydonchasiga olib chiqdi. O'yin o'ynash uchun ularni o'rta va chet qatorlarga saflay boshladi. Shunda Rahmatilla o'rtadagi qatorga tushib qoldi. Chetki qatorda turgan o'rtog'i Abror:

- Rahmatilla, sen bachcha bo'lding, - dedi.

Rahmatilla orqa va oldi tomonga qaradi. Chindan ham u o'rta qatorda ekanligini ko'rdi. Turgan joyidan chiqib, zing'illab Aborning yoniga turib oldi. Buni ko'rgan tarbiyachi:

- Rahmatilla, nega joyingda turmay chetki qatorga o'tib olding? - dedi.

- O'rtada turmayman, - deb javob qildi Rahmatilla.

- Nega?

- Men bachcha bo'lmayman, - dedi Rahmatilla qovog'ini osiltirib.

Tarbiyachi uning bu javobidan hayron bo'ldi. Hamma bolalar Rahmatillaga qarashdi. Shunda Abror:

- Ko'chamizdagi bolalar «Chetdagi sapcha, o'rtadagi bachcha» deyishadi-da, - dedi.

Aborning bu gapidan tarbiyachi ham, bolalar ham kulib yuborishdi.

BU QULOQ BO'LMAY, CHUCHVARAMI?

Islom juda shirin, ajoyib bola. O'zini kattalardek tutishga, ular qiladigan ishlarni qilishga harakat qiladi. Shundanmi, uni bog'chasida ham, uyda ham Islom bobo deyishadi. Bundan uning jahli chiqmaydi. Axir bobolar dono, aqli bo'lishadi-da...

Islom bobo bog'chasidan kelganda oyisi Surayyo opa o'choqboshida kechki ovqatga unmayotgandi. Buni ko'rgan Islom bobo oyisining oldiga bordi-da:

- Oyijon, nima ovqat qilyapsiz? - deb so'radi.

- Islom boboga chuchvara ovqat qilyapman. Sen yaxshi ko'rasan-ku, - dedi Surayyo opa.

Bu gapni eshitgan Islomjon zing'illab uyga kirib, kiyimlarini almashtirib chiqdi. Oyisining yoniga kirib, u ham chuchvara tugmoqchi bo'ldi. Biroq oyisi uning qo'lidan xamirni oldi-da:

- Islom bobo, qulog'i yo'q bola bo'lib qolibsan. Xamirga hech qo'l tegizma, deb necha marotaba aytganman, - deb koyib berdi. Bundan Islomning jahli chiqib ketdi va ikki qo'li bilan ikki qulog'ini cho'zib:

- Nega quloqsiz bola bo'laman. Bu quloq bo'lmay, siz tugayotgan chuchvarami?! - dedi-da, ko'chaga arazlab chiqib ketdi.

Hikoya

Muhiddinning buvisi Matluba xolaning bir katak tovug'i bor. Ular har kuni besh-oltitadan tuxum qiladi. Buvisi esa Muhiddinga tovada quymoq pishirib beradi. Quymoq yeyish rosa mazza-da. Muhiddin har kuni buvisiga tovuqlarga don solish, suv berishda yordam beradi, ular tuxum qilgan, qilmaganligini buvisiga xabar qilib turadi.

- Buvijon, tovuq tuxum qilsa nega «Qaqaqu-qaqaqu» deb baqiradi? - so'rab qoldi bir kuni u. Nevarasining bu savoliga Matluba xola shunday javob qildi:

Bola tug'dim boshi yo'q,
Ko'zi bilan qoshi yo'q.
Hay, hay yaxshi odamlar,
Tezroq yordam beringlar, - deb chaqiradi.

- E, nega «Qaqaqu-qaqaqu» qilishini endi bilib oldim, - dedi

DARAKCHI TOVUQ

Muhiddin. - Lekin buvijon, olachipor tovuq-chi, tuxum qilsa ham, qilmasa ham «Qaqaqu-qaqaqu» qiladi.

- Olachipor katakdagi darakchi tovuq-da, - dedi kulib buvisi...

Muhiddin buvisi bilan peshayvonda

o'tirardi. Tovuq qaqqoqlab qoldi. Buni eshitgan Muhiddin dik etib o'rnidan turdi-da, chopib katakning oldiga bordi. Katakni yaxshilab qaradi, lekin tuxum yo'q. Olachipor tovuq esa hamon baqirishini qo'ymasdi. Unga qo'shilib xo'roz ham qichqirdi. Shunda Muhiddin buvisining oldiga zing'illab keldi-da:

- Buvijon, buvijon, tuxum yo'q. Bu olachipor tovuq xo'roz bo'lib qolganga o'xshaydi, - dedi.



Onajonim tabiat

Ozodalik, sarishtalik, pokizalik - bu so'zlarni eshitganimizda qalbimizda beg'uborlik uyg'onadi. Ayniqsa, bu so'zlar amalda namoyon bo'lsa. Hamma yer chinnidek yarqiraydi, ozodalikdan hammaning bahri dili yayraydi.

Ariq bo'ylaridan o'tganingizda muattar hidi bilan sizni hushnud etib turgan rayhonlar xuddi insondek salomlashayotganga o'xshaydi...

Lekin hamma joyni birdek ozoda emasligini ko'rib, ta'bingiz xira bo'ladi.

Qadimdan otabobolarimiz suvni aziz,

yerni muqaddas sanab, ularga nihoyatda e'tiborli bo'lganlar. Yerni qattiq bosma, yerning ham joni bor, deb e'zozlaganlar.


E'TIBORLI BO'LAYLIK

Ariqlardan chashma misoli oqayotgan suvlardan bemalol iste'mol qilganlar. Endi-chi, endi unday emas. Ariqdan suv olib ichish u yoqda tursin, qo'limizni yuvishga ham botina olmaymiz. Bu savollar ko'pincha jumboqligicha qolayotgandek nazarimda.

Axir atrof-muhitning ozodaligi inson hayotining garovi-ku. Shaharga chiqsangiz ko'cha farroshlari hamma yerni tozalab,

chinnidek qilib qo'yadilar. Shahar chekkalarida esa...

Ko'p qavatli uylarning axlatxonalari



yonidan o'tadigan bo'lsangiz, qo'lingizni burningizga qo'yib o'tmasdan ilojingiz yo'q. Yana ayrim yerlarda umuman axlat

tashlash mumkin bo'lmagan yerlarga axlat tashlashadi, qarabsizki, katta axlatxona paydo bo'ladi. Ba'zida katta yozuvlar bilan: «Axlat tashlaganning qo'li sinsin» deb yozib qo'yadilar. Bu so'zni yozib qo'yilishi uyat emasmi? Lekin shu yozuvni ko'rib turib ham axlat tashlaydiganlar yo'q deysizmi? Bu savol javobsiz qolaversa, yurtimiz ko'chalari gullab, yashnash o'rniga xarobaga aylanib qolmaydimi? Har birimiz vijdonan ish tutib, ozodalikka e'tibor qaratish vaqti allaqachon yetib keldi.

Shahlo MUTALOVA.

ZILZILA VAQTIDA NIMA QILISH KERAK?

Ogoh bo'ling, bolalar!

Aziz bolajonlar, sizga ma'lumki, O'rta Osiyo va Qozog'iston zilzila tez-tez sodir bo'lib turadigan geologik zonada joylashgan. Zilzilalar natijasida ko'plab shaharlar vayronaga aylangan va qurbonlar bo'lganligi haqida ham eshitgandirsiz. Zilzila bo'layotgan vaqtida o'zingizni qanday tutishni bilasizmi? Bunday paytda o'zingizni yo'qotmasdan, dovdirab qolmasdan quyidagilarga rioya qilishingiz lozim:

1. Baqirmang, yugurib yurmang, darrov biror pana joyga berkinib oling;

2. Mabodo siz uy ichida qolib ketsangiz, stol, temir karavot ostiga bekinib oling yoki eshiklarni burchaklarida tikka turib oling;

3. Uydan tashqariga qochib chiqaman deb yugurmang, chunki qulab tushayotgan devor tagida qolib ketishingiz mumkin;

4. Agar siz ko'p qavatli uyda bo'lsangiz, liftga qarab yugurmang,

chunki liftning o'zi ham buzilib, ishlamay qoladi va qisilib qolishingiz mumkin;

5. Uyda chiroqlar yonib, qo'ng'iroqlar chalinib ketgudek bo'lsa, unga ortiqcha parvo qilmang, joyingizda turavering;

6. Agarda siz 1-2 qavatli g'ishtdan qurilgan uyda bo'lsangiz, uydan tezlikda ochiq havoga chiqib ketishga harakat qiling;

7. Derazadan pastga sakramang,

oyoq yoki qo'lingiz qayrilib ketishi mumkin;

8. Ko'p qavatli inshootlarni yonida ketayotgan bo'lsangiz, u yerdan ochiq joyga qoching;

9. Avtomashinada ketayotgan bo'lsangiz, baland qavatli inshootlardan nariroqda to'xtab, zilzila bosilguncha kutib turing; Seismologiyada birinchi silkinish - forshok, keyingi silkinishlarni - «aftershok» deb ataladi. Aftershok har doim forshokdan kuchsizroq bo'ladi. Shuning uchun undan ortiqcha qo'rqmang. Aftershok bir yilgacha davom etib, keyin asta-sekin so'nadi.

S.E.ERGASHEV,

Zilzila bo'yicha

bosh mutaxassis,


geologiya-fanlari nomzodi.

L.S.ERGASHEVA,

Chirchiq shahridagi

23 - yordamchi maktab

geografiya fani o'qituvchisi.



Bu voqeani menga oyim gapirib bergandilar. Bizning kattagina uzumzorimiz bo'lib, kuzda yetilgan uzumlarni hashar yo'li bilan terib olishar ekan. Bir kuni hasharchilarni daladan jo'natgan oyim ketish uchun hozirlik ko'rayotgan ekanlar. Dadam esa sal nariroqda mashina titkilash bilan ovora ekanlar. G'irashirada uzumzordan allaqanday ovozlari kela boshlabdi. Oyim «kimdir ketmay qolib ketibdi», - deb o'ylabdi. Oyim uzumzorga kiribdi.

UZUMZORDAQA SHARPALAR

Oyim qancha ichkari kirganlari sari, ovoz shuncha uzoqlashaveribdi. Oyim beixtiyor ularni ketidan ergashaveribdi. Oradan ancha vaqt o'tibdi. Oyimdan darak bo'lavermagach, dadam uzumzor oralab oyimni qidira boshlabdi. Chaqirib-chaqirib, uzumzorimizning orqasidagi kattagina soyga chiqib qolibdi. Soyda suv ko'p ekan, dadam qarasar, oyim suvning labida turgan emishlar.

Qo'rqib ketgan dadam

oyimni bor ovozlari bilan chaqiribdi. Oyim esa hecham qaramasmishlar. Shunda dadam yugurib borib, bor kuchlari bilan oyimni mahkam ushlab qolibdi. Shundagina oyim o'zlariga kelib: «Bu yerda nima qilib turibman?» - deb hayron qolgan ekanlar. Shu voqeadan so'ng dadam u yerdagi uzumzorimizni sotib yuboribdi va oyimni hech qachon bir o'zlarini yubormaydigan bo'libdi.

Sanjar ALIYEV,
Parkent tumani,
Zarkent qishlog'i.



KUNLARDAN BIR KUN

Bu voqeaga hali uncha ko'p vaqt bo'lganicha yo'q. Oyim bilan dadam bir kuni yer olganimizni aytib qoldilar. U yerga dadam yaxshi niyatlar bilan uy qurishni ham boshlab yubordilar. Biz yoz bo'yi ana shu yerda bo'ldik. Ustalariga yordam berib, choy tashib turdik. Uyimiz juda chiroyli joyga qurilayotgan edi. Orqa tomonda ariq, unda tip-tiniq suvning shaldirab oqayotganini ko'rib, mazza qilib cho'milgimiz kelardi. Ammo oyim ariq chuqur bo'lgani uchun u yerga yubormasdi. Uyimizning tomi yopilayotgandi. Bir kuni oyim yerto'laga nimadir qidirib tushib qolibdi. Birdan qattiq baqirganlarini eshitib, yuragimiz orqaga tortib ketdi. Hammamiz o'sha yerga yugurib bordik. Oyim karaxt holatda devorga suyanib qolgandilar. Ranglari oppoq, ko'zlari bir nuqtada edi. Dadam oyimga suv sepib, o'zlariga keltirib oldilar. Shunda oyim:

-Anavi teshikdan ikkita ilon chiqib

turgan ekan, - dedilar. Ustalarimiz bunday voqealar ko'p bo'lib turishini, ilonlar keyin ketib qolishini aytdi. Oradan hech qancha vaqt o'tgani

ILONLAR OYASI USTIDAGI OY



yo'q edi. Bir kuni tush paytida hovlimizda g'ala-g'ovur ko'tarilib ketdi. Men shoshib o'sha yerga bordim. Ustalarimizning keksarog'i

hadeb, -Nega shu paytgacha bilmadig-a, deb bosh chayqatardi. Gap nimadaligini tushuna olmay dadamga qaradim. Ularning ham ahvollari g'alati edi. Mening hayron bo'lib turganimni tushungan oyim:

-O'g'lim, uyimizning tagida ilonlar uyasi bor

ekan. Dadang kecha hovlimizda ikkita ilonni ko'rib qolibdi, ular men ko'rgan ilonlarni, - dedilar.

-Xullas, bu uyga kech kuzda ko'chib kelamiz, degandik. Lekin endi ko'chmasak kerak, bu uyni birovga ham sotib bo'lmaydi, - dedilar dadam. Bir bechora bizga o'xshab kuyib qolmasin... Endi har gal ko'chadan o'tayotganimizda romlari chala bitgan uyimizga qarab-qarab o'tamiz.

Abdualil ESHMATOV,
Parkent tumani,
Nomdanak qishlog'i.

Xabaringiz bor, bundan bir necha yil ilgari O'zbekiston telekanali orqali namoyish etiladigan «Oqshom ertaklari» ko'rsatuvida «O'zimiz ertak yozamiz» sahifasi tashkil qilingan edi. «Ertaklar bolalar uchun yoziladi, ammo eng zo'r, kutilmagan, dilbar ertaklarni bolalarning o'zlari yozadilar», deya bolajonlarni ertak yozishga chaqirgan edilar bolalar yozuvchisi Erkin aka Malikov.

Shundan buyon Respublikamizning turli viloyatlaridan ko'plab o'quvchilar o'z ijodlarini «Oqshom ertaklari» ko'rsatuviga yubordilar.

Eng sara ertaklar ko'rsatuvda o'qib borildi.

Yaqinda «Sharq» nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi homiyligida ertaksevar bolalarning «O'zimiz ertak yozamiz» deb nomlangan kitobchasi bosmadan chiqdi. Shu bahona «Sharq» nashriyotining kitoblar do'konida shoirlar, yozuvchilar va albatta ertakchi o'quvchilar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda bolalar shoirlari Umida Abduazimova, Kavsar Turdiyeva, Abdulhay Nosirov va bolalar yozuvchisi Erkin Malikov, Dadaxon Nuriy kabilar ishtirok etdilar. Fursatdan foydalanib, ertakchi bolalar va ularning ustozlari bilan suhbatlashdik:

- «O'zimiz ertak yozamiz» sahifasi orqali tanlov e'lon qilganimizda tahririyatimizga juda ko'plab ijodkor o'quvchilarning maktublari keldi. Ulardan eng yaxshilarini ajratib oldik,- deydi kitob muharriri Erkin Malikov.

Bolajonlarning ertaklarida

sahifasi boshlovchisi Shahnozaxon Mirsodiqova.

- 3- sinfdan beri she'r, ertak va hikoyalar mashq qilib turaman. Bo'sh vaqtlarimda «Bulbulcha» guruhiga qatnayman. Raqsga tushaman,




“O'ZIMIZ ERTAK YOZAMIZ”

O'zbekiston ramzlari, Ona - tabiat, Vatan, do'stlik mavzulari madh etilgan. Tez kunlarda ana shunday yana bir ertakchi bolalar kitobi bosmadan chiqish arafasida.

- Men Sirg'ali tumanidagi 284- maktabning 7- sinfida o'qiyman,- deydi «O'zimiz ertak yozamiz»

y a k k a x o n qo'shiqchiman.

Boshlovchilikka ham tanlov e'lon qilingandi. Rasmga qarab ertak aytish kerak edi. Tengdoshlarimning



barchasi juda chiroyli ertak aytib berishdi. Ammo men aytgan ertak ularga ma'qul bo'ldi shekilli, boshlovchilik menga nasib etdi.

«Bo'ri bilan tulki» deb nomlangan ertagim kitobdan joy

oldi. Bundan juda xursandman. Kelgusida bundan ham zo'r ertak yozishni oldimga maqsad qilib qo'ydim.

- O'quvchim Shahnozaxon tirishqoq, izlanuvchan, qiziquvchan qiz,- deya suhbatimizga qo'shildilar oliy toifali xalq fidoiysi Nazira aya Shonazarova.- Unga havas qilib, o'quvchilarimning deyarli barchasi ertak yozib kelishyapti. Eng yaxshi ertaklarini esa maktab sahnasiga olib chiqayapmiz.

- Tanlovga sinfimiz bo'yicha ertak yozib yubordik,- deydi 45- maktab o'qituvchisi Sofiyaxon Eshonqulova.- Uch nafar o'quvchim - Muzaffar Akbarov,

Diyoraxon Kamolova va Lobar Rixsiyevaning ertaklari g'olib bo'lib, kitobdan joy oldi. Ular 3- sinfda o'qishlariga qaramasdan xuddi kattalardek fikr yuritadilar. Ko'p bilim olishni xohlaydilar. Bu esa menga juda yoqadi.

- Bugungi uchrashuvga maktabimiz o'quvchilari ham taklif qilindilar. Garchi kitobdan o'quvchilarimizning ijod namunalari joy olmagan bo'lsa- da, ijodkor o'quvchilar bir- birlari bilan fikrlashdilar. Bilmaganlarini o'rgandilar,- deydi biz bilan suhbatda Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 20- maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Dilfuzaxon Zoitova.

Feruza SOYIBJON qizi yozib oldi.



Bizning to'garak

Insonlari nur chehra,
O'tmishi bordir ko'xna.
Ulug' zotlardan yodgor,
Qadim Andijonim bor.

«Andijon» deya o'tgan,
Vatandan ayro ketgan.
Boburbekdek buyuk zot,
Yodga tushadi bot-bot.

Gulzorlarda ungan gul,
Bog'da sayragan bulbul.
Nodiraning nolasi,
Men Andijon bolasi.

*Zilola ABDULLAYEVA,
Andijon viloyati, Oltinko'l
tumanidagi 20 -
ixtisoslashgan maktab-
internatning o'quvchisi.*

ANDIJON

Vodiy uzra yashnagan,
Buyuk zotlar yashagan.
Yurtim uchun ko'rku shon,
Bu muborak Andijon.


Tuproq'i aziz bizga,
Iftixor o'g'il-qizga.
Bog'lari lazzatga kon,
Jannatmakon Andijon.

OT YILI - MUROD YILI

Omadli insonga qanot yili bu,
Baxtli yuraklarda - bayot yili bu.
Ezgulik, quvonchu baxtga yo'g'rilgan,
Murod yilidir bu, Ot yilidir bu.

Bahori seryog'in, hosil mo'l bo'lar,
Dehqon, mirishkorning xirmoni to'lar.
Bu yilda tug'ilgan bolalar bari,
Baquvvat, serg'ayrat, qiziqqon bo'lar.

*Nurjahon JABBOROVA,
Buxoro viloyati, Peshku tumani.*



SHE'RIVASI

Men uchun she'riyat ajib bir tuyg'u,
Hayolot olamim ruhan qilgan lol.
Bu nafis tuyg'udan ajralish qayg'u,
Ey nozik fazilat, umrim bo'yi qol.

Sen yurtni kuylagin, yoshlikni kuyla,
Senga havas qilsin aql va idrok.
Ruhimda mujassam fikrni so'yla,
Bilaman, sen rostgo'ydirsan, hamda pok.
Senga qog'oz beray qalbim kabi oq,
Mo'jaz qalamim ham bo'ladi madad.
Ilhomim kelganda sen ham menga boq,
Ey, qalbim ardog'i, go'zal she'riyat.

Sening borligingga shukrona har dam,
Tinimsiz izlanib, qilasan mehnat.
Ammo ko'rinmaysan, qo'y maysan qadam,
Sen ruhiy hissiyot, abadiy san'at.

*Ma'rifat TEMIROVA,
Qashqadaryo viloyati,
Shahrisabz tumani, Miraki shaharchasidagi
2 - Huquq va Iqtisod asoslari
litsey-internatining 9 - sinf o'quvchisi.*

SICHQONVOYDAN ARIZA

Hurmatli janob Kuchuk,
Bizning qo'shnimiz Mushuk.
Rosa yeydi, to'y maydi,
Bizlarni tinch qo'y maydi.

Egasi xo'p suyadi,
Oldiga sut qo'yadi.
Shunda ham ochko'z Mushuk,
Doim poylaydi teshik.

Indan chiqolmay garang,
Qorin och, yurib arang.
Sizdan yordam so'raymiz,
Haqqingizni to'laymiz.

*Dilshod G'OFUROV,
Shayxontohur tumanidagi
169 - maktabning
7- «A» sinf o'quvchisi.*



Rasm muallifniki



MUSHUGIM

Mushugim nomi Atlas,
Hamma qiladi havas.
Qora ko'zli munchog'im,
Ermagim, ovunchog'im.

Jigarrang, oq va sariq,
Yungin silab to'y mayman.
Erkalatib, o'ynatib,
Qo'limdan hech
qo'y mayman.

*Muhabbat JO'RAYEVA,
Toshkent viloyati,
Zangiota tumani,
O'zgarish qishloq
fuqarolar yig'ini.*

TOPISHMOQLAR

Ming asrlik kitobim,
Borliq uzra oftobim,
Qilma deydi o'g'rilik,
Do'sting bo'lsin to'g'rilik.

Halol ye, xarom yema,
Yomonni yaxshi dema.
Har bir satri haq, iymon,
Topdim buvi, bu

(Qur'on).

Qora do'stim, tuki yo'q,
Mehnatining cheki yo'q.

(Chumoli).

Mindim uchqur otimga,
Tengi yo'q qanotimga.

Cheksiz ummon kezdi u,
Raketadan o'zdi u.

(Xayol).

Odina SALOMOVA,
Samarqand viloyati,
Narpay tumanidagi 43 -
o'rta maktabning 5 - «A»
sinf o'quvchisi.

Yaxshidan yordam
so'rasang,
Ko'nglini ochar.
Yomondan madad
so'rasang,
Zahrini sochar.

xxx

Do'st kelsa gar,
chamanzor uying,
G'anim kelsa,
azadir to'ying.


xxx

Ustozning bahosi ko'p,
Dangasaning bahonasi.

xxx

Yomonga do'st bo'lsang,
Noming o'chadi.
Yaxshiga yondoshsang,
Omad quchadi.

Nurbek UNGAROV,
Toshkent viloyati,
Zangiota tumanidagi
12 - maktabning
7- «A» sinf o'quvchisi.



Malika maktabdan kelishi bilanoq odatiga ko'ra hovli chekkasidagi gulzori tomon oshiqdi. Har kuni gullarini ko'rib, chehrasi guldek yashnab qaytadigan qizalog'ining bugungi tushkun kayfiyatini ko'rgan Munira opa havotirli ohangda so'radi:

-Ha, ona qizim, senga nima bo'ldi?

-Gulimni kimdir uzib olibdi,- deya yig'lab yubordi Malika va yugurgancha o'z xonasiga kirib ketdi...

Malika juda yoshligidanoq gullarga mehr qo'ygandi. Gulzoridagi turfa gullarni havas bilan parvarishlard. Ayniqsa, kuzda xolasinikidan olib kelgan bir tup atirguliga mehri bo'lakcha edi. Yaqinda shu gul bir dona g'unchalagandi. Malika ana shu g'unchaning ochilishini intizor kutayotgandi. Afsuski...

Malika ham, onasi ham bu ishni singlisi Umida qilganidan bexabar edilar...

Umida oilada kenja farzand bo'lgani uchun, hamma uning ko'ngliga

qarar, aytgani aytgan edi. Oqibatda, u erka, ishyoqmas bo'lib ulg'aya bordi. Malika esa uning aksi edi. Doimo onasiga ko'maklashar, qo'li bo'shadi deguncha, gulzoriga oshiqardi. Shundanmi, buva va buvilari ham, ota-

GULZORDAGI VOQEA

Hikoya

onasi ham uni maqtashardi. U haqida so'z ketgudek bo'lsa, qo'ni-qo'shnilarining ham tillaridan bol tomar, farzandlariga ibrat qilib ko'rsatishardi.

Bularning bari Umidaga yoqmasdi. Chunki unga berilayotgan e'tiborning bo'linishini xohlamasdi-da.

O'ylay-o'ylay, opasidan qanday alamini olish yo'lini topganday bo'ldi, yolg'izgina g'unchasini uzib oldi.

Malika bu voqeadan so'ng xomush yuradigan bo'lib qoldi. Bir kuni uning tobi qochib qoldi. Shifokorning maslahatiga amal qilib, uy sharoitida davolana boshladi. O'zi betob bo'lsa-da, fikri hayoli gullarida edi.

-Umida, sendan bir iltimosim bor edi,-dedi iltijoli ohangda singlisini

yoniga chorlab.- Atirgulim ikkinchi g'unchasini tukkan. Men sog'ayib ketgunimcha, ularga qarab tur. Yana uzib ketishmasin. So'ngra yuzini yostiqa bosib yig'lab yubordi.

Umida opasining gulga bunchalik mehr qo'yganini ko'rib, qilgan ishidan pushaymon bo'lib ketdi va haqiqatni aytishga qaror qildi...

Yaxshiyamki opasi uni kechirdi. O'zi ham yengil tortgandek bo'lib, kulimsirab qo'ydi. Malika oyoqqa turguncha gullarini parvarishlab, bog'dagi har bir o'zgarishni unga yetkazib turdi. Bundan quvongan opasi kundan-kunga tuzala boshladi. Shifokor turishga ruxsat bergan kuni Umida opasining qo'lidan yetaklab, gulzoriga olib bordi. Malikaning nazarida gulzori yanada yashnab ketgandek edi. Gullarini zavq bilan tomosha qilarkan, ko'zi birdan atirguliga tushdi va yarq etib singlisiga qaradi. Atirgulning ikkinchi g'unchasi barq urib, ochilib turardi. Malika sevinchini ichiga sig'dirolmay, singlisini quchoqlab oldi.

Atirgul UNGARBOYEVA,
O'zMU qoshidagi S.Rahimov
akademik litseyning
2-kurs talabasi.



ALTERVORD

Altervord - ixcham, qiziqarli boshqotirma. Javoblar raqam belgilangan xonadan keyingi katakdan boshlab yoziladi. Javoblarni to'g'ri topib, boshqotirmaga joylashtirsangiz, natijada so'zlar gorizontliga ham, vertikaliga ham bir xil o'qiladi.

1 - Altervord savollari:

1. Cho'p. 2. O'ra, ora. 3. Yirtqich qush.

2 - Altervord savollari:

1. Avtomobil rusumi. 2. Imkon. 3. Millat. 4. Nimjon.

3 - Altervord savollari:


1. Ayollar jurnali. 2. Tutqun ayol. 3. Pinhon, yashirin. 4. Muqimiy she'ri. 5. Qirg'iz eposi.



2	1	2	3	4
1				
2				
3				
4				

1	1	2	3
1			
2			
3			

3	1	2	3	4	5
1					
2					
3					
4					
5					



Aziz mushtariylar, ushbu suratdagi olmaxonlarning 8 ta farqini toping.

Dildora EGAMBERDIYEVA,
Toshkent shahar, Akmal Ikromov tumanidagi
312 - maktabning 5- «A» sinf o'quvchisi.

Ona yurtim - oltin beshigit
TONG Yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOYIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 46.291
nuxsada ofset usulida bosildi.
Korxonalar manzili: «Buyuk
Turon» ko'chasi, 41.
Buyurtma № Г-961
Gazetani
Muhabbat MAXSUDOVA
sahifaladi
Navbatchi:
Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi
№ 000137
Manzirimiz: 700129,
Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08